

Osiyo texnologiyalar Universiteti o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich magistranti

Mansurova Bog'dagul Quchqorovna.

@bogdagulmansurovna19gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yetuk nasr ustalaridan biri Xayriddin Sulton ijodi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda yozuvchining nasriy asarlarida milliylik va zamonaviylik uyg'unligi, inson psixologiyasining badiiy talqini hamda tarixiy xotirasining ifodalanish xususiyatlari o'rganildi. Tadqiqot natijalari Xayriddin Sulton nasri mazmunan teran, usluban sodda va falsafiy mushohadaga boy ekanini ko'rsatadi. Yozuvchi asarlarida inson va jamiyat munosabatlari milliy-estetik qadriyatlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar

Xayriddin Sulton, o'zbek nasri, milliylik, psixologik tahlil, zamonaviy adabiyot, falsafiy mushohada, tarixiy xotira, yozuvchining so'z qo'llash mahorati.

Abstract

This article provides a literary and theoretical analysis of the works of Khayriddin Sulton, one of the prominent masters of modern Uzbek prose. The study examines the harmony between national identity and modern thinking, the artistic interpretation of human psychology and the artistic interpretation of historical memory in the author's prose. The results of the study indicate that Khayriddin Sulton's prose is characterized by thematic depth, stylistic clarity, and a high level of philosophical and aesthetic reflection. The research substantiates the significant role of the writer's works in the development of modern Uzbek prose.

Keywords

Khayriddin Sulton, Uzbek prose, national consciousness, psychological analysis, modern literature.

Kirish

Zamonaviy o'zbek adabiyotida nasr janrining rivojida muhim o'rin tutgan ijodkorlardan biri Xayriddin Sultondir. Yozuvchining asarlarida milliy tafakkur, tarixiy xotira, inson ruhiyati va jamiyat muammolari chuqur badiiy talqin etiladi. Uning ijodi o'zbek nasrining shakliy va mazmuniy imkoniyatlarini kengaytirganligi bilan ahamiyatlidir.

Ushbu maqolada Xayriddin Sulton nasrining asosiy badiiy xususiyatlari, mavzu doirasi va uslubiy o'ziga xosliklari tahlil qilinadi.

Xayriddin Sulton ijodi 70-yillarda boshlangan bo'lsa, shu davr mobaynida o'zining "Ko'ngil ozodadur", "Yozning yolg'iz yodgori", "Saodat sohili", "Yo Jamshid", "Qog'oz gullar" kabi hikoyalari bilan o'quvchi ko'nglini qozondi. Oraliq 20 yillik tanaffusdan so'ng esa "Odamlardan tinglab hikoya" hikoyalar to'plami, "Haqiqat jamoli" publitsistik maqolalar to'plami, "Ishonch telefoni" qissalari bilan adabiyot ixlosmandlarini yanada xushnud qildi. Yaratgan asarlari adabiyotning yorqin vakillari tomonidan iliq fikrlar bilan kutib olindi. [Adilova, 2023, 40-b] Adabiyotlar tahlili. Adabiyotshunos Umarali Normatov mustaqillik davri o'zbek nasriga bag'ishlangan tadqiqotlarida Xayriddin Sulton ijodini ruhiy-psixologik tahlilga asoslangan nasr namunasi sifatida baholaydi. Olimning ta'kidlashicha, "Xayriddin Sulton asarlarida voqealar rivojidan ko'ra, inson qalbidagi ichki kechinmalar yetakchi o'rin egallaydi". Bu fikr yozuvchining nasrdagi badiiy yondashuvini belgilovchi muhim jihat sifatida e'tirof etiladi.

Qozoqboy Yo'ldoshev o'z ilmiy izlanishlarida Xayriddin Sulton nasrida milliylik masalasiga alohida to'xtalib, yozuvchining badiiy tafakkurida milliy ruh tashqi tasvirlardaenas, balki tafakkur mezoni sifatida talqin qilinadi. Bu holat adib ijodining estetik qiymatini oshiradi. Bundan tashqari, adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov, Ibrohim G'ofurov va D. Ismoilovalar ham adib ijodini o'rganishgan. Adabiyotshunos Shohsanam Sopiyeva 2006-yilda "Xayriddin Sultonning hikoyanavislik mahorati" mavzusidagi dissertatsiyasini yoqlagan.

2024-yil adabiyotshunos Yulduz Karimovanning filologiya fanlari doktori (DSc) likni olish uchun qilgan "O'zbek adabiyotida Bobur obrazi: tadrij va talqin" nomli dissertatsiyasining ikki faslini Xayriddin Sultonning "Saodat sohili" asariga bag'ishlagan va unda tragik pafos, asar badiiyligi va obraz haqqoniyligi muammosini atroflicha tahlil qilgan. [Abdullayeva].

Metodologiya. Maqolada adabiyotshunoslikda keng qo'llaniladigan tahlil usullaridan foydalanildi. Jumladan, tarixiy-tipologik, qiyosiy- tahliliy va psixologik tahlil metodlari asosida yozuvchining nasriy asarlari o'rganildi. Tahlil jarayonida Xayriddin Sultonning hikoya, qissa va romanlari mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratilib, badiiy obrazlar, syujet va uslubiy xususiyatlar ilmiy yondashuv asosida baholandi.

Munozara

Xayriddin Sulton bugungi o'zbek qissachiligida o'ziga xos ovoz, o'ziga xos uslub bilan bir-biridan original asarlar yaratib kelayotkan adiblardan biri. Uning qissalari pishiq va puxtaligi bilan ajralib turadi. Adibning "Onamning yurti" nomli qissa va hikoyalar to'plamidan joy olgan "Ajoyib kularning birida" qissasi o'zining syujet chizig'i, qahramonlarning sodda va dilkash tasviri bilan badiiy ahamiyatga egadir. Asar O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov xotirasiga bag'ishlanadi. Qissaning boshlanishida ham o'zgacha ruh seziladi: Bu voqea ajoyib kunlarning birida ro'y berdi. Ochig'ini aytkanda, bu kunni u qadar ajoyib deb bo'lmasdi: havo sovuq, yer balchiq, yo'l- yo'lkalari shilta-shalabbo, samolyotga bilek yo'q, "Paxtakor" birinchiligiga tushib

ketgan. Lekin baribir bu ajoyib bir kun edi: odamlar shoshib ishga borar, maydonlarda gala-gala kaptarlar o'ynar, do'konlarda savdo chaqqon, radiodan Munojot "Munojot" ni qarsillatib aytib turar, namchil xiyobonlarda shamsiya tutgan oshiq ohista kezardi. [X.Sulton. 2024, 56-b].

Z.M.Bobur shaxsiga shu qadar maftun bo'lib qolgan Xayriddin Sultonov dastlab u haqida "Yo'lbarsning tug'ilishi" nomli kinohikoya, undan keyin esa "Oy botkan pallada" hikoyasini yozdi. Bu asarlarning asosiy qahramoni sifatida Boburni ko'rsatdi. Uning Boburning shoh va shoir sifatidagi murakkab siymosini gavdalantirish yo'lidagi dadil intilishi "Saodat sohili" qissasida, ayniqsa, yorqin ko'rinadi. 1981-yilda "Yoshlik" jurnalining dastlabki sonida bosilib chiqqan ushbu qissa " Usta Binoqul, qani turing, shom tushmay, hov dovonga yetib olaylik, u yog'i - Yo, Razzoq! deb boshlanadi. [X. Sultonov 2024, 159-b].

Ushbu qissada Bobur xarakterining eng muhim jihati -uning doimo vatan sog'inchi bilan iztirob chekib yashagani, o'z umrini, ko'rgan-kechirganlarini taftish qilib yurgani, ilm-ma'rifatga mehr qo'ygan kishilarga g'amxo'rlik ko'rsatgani ta'sirchan tasvirlangan.

Xayriddin Sultonovning "Ishonch telefoni" qissasida hayotda chindan ham yuz bergan, muallif bevosita guvohi bo'lgan voqea-hodisalar yon-atrofimizda yashayotgan, tarixi va taqdiri bir-biriga o'xshamaydigan turli insonlarning xarakterlari, ruhiy kechinmalari o'ziga xos shartli shaklda ifoda topgan. Bu asar "- Allo, "Ishonch telefoni" ga tushdimmi? " jumlasini bilan boshlanadi.

Xulosa

Shu o'rinda aytish mumkinki, Xayriddin Sulton zamonaviy o'zbek nasrining yetuk namoyandalaridan biri bo'lib, uning ijodi nasr janrining badiiy va falsafiy imkoniyatlarini boyitgan. Yozuvchi asarlarida inson va jamiyat munosabatlari chuqur psixologik va milliy-estetik talqinda yoritilgan. Shu bois, Xayriddin Sulton ijodini o'rganish o'zbek adabiyotshunosligi uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva G. Xayriddin Sulton ijodining o'rganilishi. Tezis. European science international conference.
2. Adilova F. Xayriddin Sulton qissalarida milliy ruh va obrazlar poetikasi. Uzbekistan: Language and Culture. 2023. 37-46-b
3. Normatov U. Mustaqillik davri o'zbek nasri.- Toshkent: O'zbekiston, 2021, 340-b.
4. Mirzayev A. Zamonaviy o'zbek nasrida badiiy tafakkur.- Toshkent: Universitet, 2023-215-b.

5. Rajabov M, Zamonaviy o'zbek nasrida psixologik tahlil masalalari.O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2022 N4.
6. Sultonov X Tanlangan asarlar. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot. 2024.